

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING DOLZARB
MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**Navoiy shahri,
07.06.2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DOLZARB MASALALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**Navoiy shahri,
07.06.2023**

O‘O‘K: 811.512.131

“Boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2023. – 192 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-apreldagi 39-sonli bayoni hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “2023-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli buyrug‘iga asosida Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrasidan 2023-yil 7-iyun kuni o‘tkazilgan **“Boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrirlar:

M.Ernazarova – filologiya fanlari doktori, professor.

G.Shamsidinova – biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

S.Matchonov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori.

M.Suyunov – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim
kafedrasidan dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

R.Ravshanova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

N.Qobulova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

M.Jumayeva – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

R.Isroilova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.Holikulova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.Ergashova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi.

A.Najimova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
katta o‘qituvchisi.

I.Norova – Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasidan
o‘qituvchisi.

Navoiy davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Kengashining 2023-yil 29-maydagi 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Вахланки, мазкур воқелик буюк файласуф Ибн Арабий томонидан йўл қўйилган нотўғри ижтиҳод эди, гарчи унинг ўзи билмасда.

Қуръони Каримнинг ушбу сурасида келтирилган жумлаларни замонавий илмий истилоҳи шундан иборатки, ҳозирги Адан кўрфази билан Қизил денгиз туташган Боб Ал-Мандаб бўғозида ва Атлантика океани билан Ўрта Ер денгизи туташган Гибралтар бўғозида икки денгиз суви аралашиб кетмаслигини машҳур денгизчи сайёҳ капитан Кусто ўзининг бир неча йиллик тадқиқотлари натижасида исботлаб берди. Бу билан Кусто Қуръони Каримнинг илоҳий мўъжиза эканлигини эътироф этди. Унинг ёзишича, «табиат қонунларига кўра бу икки ҳавзанинг сувлари аллақачон қўшилиб кетиши ва уларнинг шўрлик кўрсаткичлари бир хил бўлиши керак эди. Аммо улардан ҳар бири ўз хусусиятини сақлаб келмоқда»⁷. Шундан сўнг у ўз эсдаликларида «замонавий фанни 1400 йил ортда қолдирган Қуръон инсоннинг сўзлари эмас, фақат Яратганнинг каломидир»⁸, -дея таъкидлаган.

Кези келганда маълумот сифатида айтиш лозимки, Саъдуддин Тафтазонийнинг илмий асарлари қаторидан Ибн Арабийнинг машҳур «Фусус ал-ҳикам» асарига раддия тарзида «Ар-Раъд ғала заандақати Ибн Арабий» номли китоби ҳам ўрин олган. Қолаверса, Тафтазоний «Ибн Арабийнинг «Ваҳдуд ул-вужуд» таълимоти Қуръонга асосланмаган»⁹ ҳолда баён этганлигини айтиб ўтади.

Биз мазкур тадқиқотда «Ваҳдуд ул-вужуд» назариясининг асосчиси Ибн ал-Арабий таълимотини бутунлигича танқид остига олиш ниятидан йироқмиз. Тадқиқотлар таҳлили натижасида шуни айтмоқчимизки, нафақат Ибн Арабий, балки фалсафа тарихидаги барча мутафаккирлар қарашлари ва назарияларининг жамият тараққиётидаги таъсир доираси замон ҳамда макон нуқтаи назаридан ҳолис баҳоланади. Шу жиҳатдан олиб қараганда, Ибн Арабийнинг мазкур мавзуга муносабати жамиятнинг ижтимоий тузуми, ислом таълимотига нисбатан турлича илмий ёндашувларнинг мавжудлиги ҳамда бошқа шу каби омиллар сабабидан эканлигини эътироф этамиз ва мўътадил ёндашувни ёқлаймиз. Қолаверса, Ибн Арабий томонидан ақидавий масалаларни ёритишда ғоявий эркинлик, хурфикрлилик асосида ижодий ёндошганлигини англаш мумкин. Юқоридаги жумлада таъкидланганидек, Қуръони Карим сурасини хато бўлсада ижтиҳод қилиб, тафсирини баён қилишга бўлган саъй-ҳаракатлари Ибн ал-Арабий шахси ва сиймосига нисбатан неготив қарашни пайдо бўлишига замин яратмайди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, «Ислом ва жаҳон цивилизациясига бебаҳо ҳисса қўшган аждоқларимизнинг бой маданий меросини чуқур ўрганиш асосида ёшларнинг онгу тафаккурини шакллантириш»¹⁰ масаласининг давлат сиёсати даражасига кўтарилиши ижтимоий ҳаёт саҳнида юзага келаётган долзарб муаммоларни самарали ҳал қилиш имконини беради. Шу жиҳатдан, Тафтазонийнинг илмий-фалсафий, маънавий меросини чуқур таҳлил ва тадқиқ этиш асносида уни демократик ислохотлар жараёнига йўналтириш жамият ҳамда инсонларнинг маънавий юксалиш даражасини белгиловчи омил сифатида эътироф этилади.

О‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA TURLI TOPSHIRIQ VA MASHQLARNING AHAMIYATI

Ozodova Madina Hamza qizi -

Buxor davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi tayanch doktoranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda turli topshiriq va mashqlarning ahamati, ulardan foydalanish orqali og‘zaki va yozma nutqni takomillashtirish haqida bilim beradi.*

***Kalit so‘zlar:** Ta‘lim, boshlang‘ich sinf, mashq, topshiriq, nutq, partadosh, kreativ fikrlash, nutq.*

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog‘langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta‘siri ostida qarashlar, e‘tiqodlar, intellektual, ma‘naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe‘l-atvor shakllanadi. Nutq

7 К.Гадоев., С. Бердиева. Жаҳонгашта олимлар. -Тошкент: Ўзбекистон, 2012. –Б.226

8 Ўша асар. –Б.227.

9 Knysh A.D. Ibn ‘Arabi in the Later Islamic Tradition: The making of a polemical image in medieval Islam. P. 148-153; Насыров И. Р. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция).- М.: Языки славянских культур, 2009. –С. 455.

10 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги «Диний-маърифий соҳ фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ 5416-сон фармони/<https://lex.uz/docs/3686277>

yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo‘lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg‘unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma’no va mazmunga ega.

Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos bo‘lib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. So‘z esa, predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq.

Umumlashtirish funksiyasi har bir so‘z umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bog‘liq, bu esa tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya‘ni muloqot muayyan ma‘lumotlarni, fikrlarni, tuyg‘ularni odamlar bir-birlariga etkazib berishdan iborat bo‘lgan jarayondir.

Inson nutqining aniqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyg‘ularini ifodalash imkonini beradi. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma‘lum tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsional holatlari :mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar haqidagi ma‘lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga yetkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas‘uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. O‘qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e‘tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e‘tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. O‘quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg‘ulotlari samarali o‘tgan bo‘ladi.

Bolalar maktabda o‘qish davomida 750 dan ziyod har xil grammatik tushuncha va ta‘riflarga duch keladilar, 6500-7000 atrofida turli hajm va murakkablikdagi topshiriqlarni bajaradilar, ammo ularning nutqida sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlanyapti. Ko‘pchilik o‘quvchilar ijodiy fikrlash, fikr mahsulini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri ifodalashga qiyinaladilar; o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlarini nutqiy jarayonlarda qo‘llay olmaydilar. Buning sabablarini aniqlash uchun bolalarning nutqiy taraqqiyotini belgilovchi omillar: ularning so‘z boyligi, so‘z va so‘z birikmalaridan gapda o‘rinli foydalanish mahorati, gapni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish malakalari, fikrni turli nutq uslublarida to‘g‘ri, ixcham, ravon, tushunarli bayon qilish ko‘nikmalari kabilarni alohida-alohida tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. O‘quvchi nutqining muhim ko‘rsatkichlaridan biri uning so‘z boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy ma‘lumotlarga qaraganda, 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha so‘zni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili mashg‘ulotlarida fikrni og‘zaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tug‘ilganda o‘quvchilardagi so‘z qashshoqligi darrov sezilib qoladi. Nutqda so‘zlarni takroriy qo‘llash, berilgan so‘zni uning ma‘nodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi ma‘noligi bilan almashtira olmaslik, ma‘lum bir sohaga qarashli so‘zlar lug‘atini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, o‘quvchilarning so‘z boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.

Xullas, o‘quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta‘lim mazmuni yoki o‘qituvchigagina bog‘liq emas. Barcha imkoniyatlar to‘lalgicha ishga solinsagina fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish jarayoni oson kechadi. O‘quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. Bizga ma‘lumki, o‘quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun

ularni nutqini o'stirishda doimo har xil metod va o'yinlardan foydalanish lozim. Quyida shulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiraman.

“Umumiylikni izlash” O'quvchilar aylana qurib o'tiradilar. Olib boruvchi o'quvchilardan biriga to'pni otayotib, bir-biri bilan bog'lanmagan ikkita so'zni aytadi. Masalan: maktab va o'quvchi, kitob va javon, quyosh va gul... To'pni tutib olgan o'quvchi so'z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to'pni qaytaradi. Bu kabi ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I. A. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.- Toshkent: “Respublika ta'lim markazi”, 2021. - 128 b.
2. Azimova I. A. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism: 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta'lim markazi”, 2021. – 104 b.
3. Doniyarov M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyati haqida mulohazalar. Архив Научных Публикаций JSPI. 2020.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАЛЛИГРАФИЧЕСКИХ МИНУТОК НА УРОКАХ ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Мусаева Б.М. - Навоийский государственный педагогический институт
Кафедра русского языка и литературы

***Аннотация.** Данная статья содержит актуальность и раскрытие проблемы формирования каллиграфических умений младших школьников, как средство развития культуры устной и письменной речи. Овладение навыками каллиграфического письма способствует развитию пространственных представлений младших школьников, совершенствованию мелкой моторики, развитию памяти, мышления и внимания. В статье использованы некоторые языковые игры, которые способствуют развитию кругозора учащихся, языковой догадки и памяти.*

***Ключевые слова:** каллиграфия, технические навыки, мышление.*

Умение, мастерство писать четким, ровным, хорошим почерком называют каллиграфией. Это греческое слово означает в русском языке чистописание. Умение писать красивым почерком, то есть графические навыки каждого из нас формируются в процессе обучения и становятся незаметными, механическими. Систематическая работа по формированию каллиграфического почерка ученика – одна из главных задач школы. Ученые утверждают, что обучать ребенка каллиграфического письма можно начинать с пяти лет. Работа по чистописанию начинается с первых дней обучения ребенка. Каллиграфически правильное письмо способствует эстетическому, эмоциональному воспитанию школьников, воспитанию опрятности, сосредоточенного прилежного отношения к выполнению любой работы. Целью минуток каллиграфии и обучения письму в начальной школе характеризуется проработкой формирования графических, каллиграфических и орфографических навыков письма.

На минутках каллиграфии необходимо путем правильного отбора и проведения специальных упражнений сформировать у учащихся такие навыки, которые при переходе на скорое письмо способствовали бы сохранению четкости почерка. Выработать у учащихся четкое, красивое и скорое письмо невозможно за короткое время. Для этого нужно несколько лет, так как навык письма формируется медленно.

Процесс письма связан с деятельностью всех участков головного мозга, хотя их роль в различных видах письма не одинакова, то есть гармония почерка – это гармония состояния полушарий головного мозга человека. На момент начала систематического школьного обучения еще не все участки коры головного мозга морфологически и функционально развиты, особенно лобные доли коры. Это затрудняет процесс обучения письму. Именно поэтому следует уделять большое внимание минуткам каллиграфии на каждом уроке для совершенствования технических и графических навыков письма младших школьников.

Сначала необходимо ознакомить учащихся с правилами посадки ребенка во время письма и положением ручки (карандаша) в руке во время письма, положение тетради на парте при письме, ориентироваться в тетради, первоначальное ознакомление с написанием букв, буквосочетаний, письмом слогов, слов, предложений. Затем закрепление и совершенствование этих умений на минутках каллиграфии.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH USULLARI H.Bakiyeva - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti.....	59
ADABIYOT O‘QITISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI Suyunov M - Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, p.f.n.....	62
TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI V.Yusupova - Xorazm viloyati PYMO‘MM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari” kafedrasida o‘qituvchisi.	65
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA O‘QIB VA TINGLAB TUSHUNISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li - Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi.....	66
KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI ART-TERAPIYA ORQALI RIVOJLANTIRISH Jumayev Umedjon To‘raqulovich - Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi.....	69
КАЛОМ ИЛМИ ТАРИХИ ВА УНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ ТАФАККУР ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ М.Х.Норқобилов - Навоий давлат педагогика институти Тарих кафедраси доценти в.б., ф.ф.ф.д. (PhD).....	71
O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA TURLI TOPSHIRIQ VA MASHQLARNING AHAMIYATI Ozodova Madina Hamza qizi - Buxor davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi tayanch doktoranti.....	73
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАЛЛИГРАФИЧЕСКИХ МИНУТОК НА УРОКАХ ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Мусаева Б.М. - Навоийский государственный педагогический институт Кафедра русского языка и литературы.....	75
“SINFDA O‘QISH” MODULINI O‘QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi- Buxoro davlat universiteti Tayanch doktoranti.....	78
BOSHLANG‘ISH SINFI O‘QUVCHILARIGA KO‘PAYTIRISH AMALINI O‘RGATISH METODIKASI Alimov Alisher Yarashevich-NavDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi Alliyarova Shaxnoza Makset qizi-NavDPI Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.....	79
ФОРМЫ ПРОВЕДЕНИЯ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Нажимова А.И. – ст. преп. кафедры начального образования НавГПИ	80
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING MATEMATIKADAN VAQT O‘LCHOV BIRLIKLARIGA OID KOMPONENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI Alimov Alisher Yarashevich-NavDPI, Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi Begmuratova Banu Xamid qizi-NavDPI, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.....	83